XALQ DEPUTATLARI NARPAY TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-126-7-98-K/25 Narpay tumani

Narpay tumanining 2025-yil 4-chorak mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori ijrosini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 127-moddasiga hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Aliyevning 2025-yil 4-dekabrdagi 05-12/8284-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining yettinchi chaqiriq o‘n sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qaroriga asosan tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 790 854,0 ming (yetti yuz to‘qson million sakkiz yuz ellik to‘rt) so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Narpay tuman bo‘limi tasarrufidagi mahallalarning “Mahalla jamg‘armasi”ga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, Xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining 2025-yil 4-yanvardagi VII-3-3-7-98-K/25-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi hamda 2-ilovasidagi 8-bandlari tuman mahalliy byudjeti hisobidan Narpay tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 4-chorak daromadlari va xarajatlarini 790 854,0 ming (yetti yuz to‘qson million sakkiz yuz ellik to‘rt) so‘m ilovaga muvofiq oshirilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (U.Ruziyev) Narpay tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 4-chorak daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Namazov) ga, qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Aliyev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **XUSANOVA RISOLAT ISMOILOVNA**

Xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-126-7-98-K/25 -son qaroriga
1-ilova

a) Xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining 2025-yil 4-yanvardagi VII-3-3-7-98-K/25-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish summasi	Jami
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	23 455 000,0	790 854,0	24 245 854,0

b) Xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining 2025-yil 4-yanvardagi VII-3-3-7-98-K/25-son qarori 2-ilovasidagi 8-bandi “Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Xarajat turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish summasi	Jami
“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	2 397 000,0	790 854,0	3 187 854,0